




ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA SODDA GAP TAHLILI

Mamadumarova Zamirabonu Shavkatjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Arabshunoslik oliy maktabi,

Arab-ingliz filologiyasi yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

E-mail: zmuhammadumarova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22026402>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 15-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 20-avgust 2026 yil

KEY WORDS

arab tili, o'zbek tili, sodda gap, sintaksis, ismiy gap, fe'li gap, qiyosiy tilshunoslik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada arab va o'zbek tillaridagi sodda gaplarning sintaktik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sodda gapning tuzilishi, bosh bo'laklari, so'z tartibi hamda har ikki tilga xos grammatik xususiyatlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Arab tilidagi ismiy va fe'li gaplarning o'ziga xos jihatlari hamda ularning o'zbek tilidagi sodda gaplar bilan o'xshash va farqli tomonlari misollar asosida tahlil qilingan.

Sintaksis tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, unda so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi hamda ularning o'zaro munosabatlari o'rganiladi. Gap esa fikrni ifodalovchi asosiy sintaktik birlik hisoblanadi. Sodda gap bitta predikativ markazga ega bo'lib, nutqda fikrning ixcham va aniq ifodalanishini ta'minlaydi. Arab va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularning sintaktik tizimida umumiy va o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Ayniqsa, sodda gaplarning tuzilishi, bosh bo'laklarning ifodalanishi hamda so'z tartibini qiyosiy o'rganish tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Arab adabiy tilida sodda yig'iq gaplar (ega va kesim) hamda sodda yoyiq gaplar (aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol) mavjud. Gapning kesimi fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, bunday gaplar fe'li gap deyiladi.

Masalan:

رَشِيدٌ كَتَبَ Rashid yozdi.

Fe'li gapning asosiy tarkibiy qismlari fe'l (الفعل) va bajaruvchi – fa'il (الفاعل)dan tashkil topadi. Yuqoridagi gapda كَتَبَ – fe'l, رَشِيدٌ – fa'il vazifasini bajarib kelmoqda

Arab tilida fe'lning gap boshida kelishi tabiiy hol bo'lib, fe'l shaxs, son va jins jihatdan ega bilan muayyan grammatik munosabatga kirishadi. Bundan tashqari, i'rob tizimi gap bo'laklari o'rtasidagi grammatik munosabatlarni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Aynan i'rob tufayli arab tilida ayrim hollarda so'z tartibi o'zgarishi mumkin bo'lsa-da, gap bo'laklari o'rtasidagi grammatik munosabatlar saqlanib qoladi.

Kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumi bilan ifodalangan gap ot kesimli gap deyiladi. Arab tilida bunday gaplar asosan ismiy gap sifatida o'rganiladi.

Masalan:

كَبِيرُ الْكِتَابِ Kitob kattadir.

Ismiy gap ot yoki olmosh bilan boshlanadi hamda asosan muftada (المبتدأ) va xabar (الخبر)dan tashkil topadi. Yuqoridagi gapda الْكِتَابُ – muftada, كَبِيرُ – xabar vazifasini bajarmoqda. Muftada

va xabar, odatda, raf' holatida (مرفوع) keladi. O'zbek tilida sodda gap bitta grammatik asosga ega bo'lgan sintaktik birlik hisoblanadi. U tugallangan fikrni ifodalaydi va odatda ega hamda kesimdan tashkil topadi. Ba'zi hollarda ega tushirilishi mumkin, biroq kesim tarkibidagi shaxs-son shakli yoki kontekst orqali ega anglashiladi. O'zbek tilida sodda gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq va undov gaplarga bo'linadi. Tuzilishiga ko'ra esa yig'iq va yoyiq sodda gaplar farqlanadi. Yig'iq gap faqat bosh bo'laklardan tashkil topadi, yoyiq gap tarkibida esa aniqllovchi, to'ldiruvchi va hol kabi ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etadi.

Masalan: Men o'qiyman.

Talabalar universitet kutubxonasida ilmiy adabiyotlarni o'rganmoqda.

Birinchi misol yig'iq sodda gap bo'lsa, ikkinchi gap yoyiq sodda gap hisoblanadi. O'zbek tilida kesim odatda gap oxirida joylashadi va gapning grammatik markazi vazifasini bajaradi. Grammatik munosabatlar asosan kelishik, egalik va shaxs-son qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

Arab va o'zbek tillarida sodda gaplar o'rtasida bir qator umumiy jihatlar mavjud. Har ikkala tilda ham gapning predikativ asosini bosh bo'laklar tashkil etadi. Shuningdek, aniqllovchi, to'ldiruvchi va hol kabi ikkinchi darajali bo'laklar gap mazmunini kengaytirib, fikrning aniq ifodalanishiga xizmat qiladi. Farqli jihatlariga keladigan bo'lsak, arab tilida gap bo'laklarining sintaktik vazifasi ko'pincha i'rob orqali aniqlanadi, o'zbek tilida esa grammatik munosabatlar asosan qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. Shu sababli arab tilida so'z tartibi nisbatan erkinroq bo'lsa, o'zbek tilida gap bo'laklarining joylashuvi nisbatan qat'iyroq hisoblanadi. Shuningdek, ikki tilda so'z tartibi ham sezilarli darajada farq qiladi. Arab tilidagi fe'lli gaplarda odatda fe'l gap boshida keladi, o'zbek tilida esa kesim gap oxirida joylashadi.

Masalan:

الدَّرْسُ الطَّالِبُ كَتَبَ Talaba darsni yozdi.

Arab tilidagi ushbu gapda fe'l avval, undan keyin fa'il va to'ldiruvchi kelgan bo'lsa, o'zbek tilida ega, to'ldiruvchi va kesim ketma-ketligi kuzatiladi. Ushbu farqlar ayniqsa tarjima jarayonida e'tibor talab qiladi. Arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda nafaqat so'zlarning ma'nosi, balki ularning sintaktik vazifasi va gapdagi o'rni ham hisobga olinishi lozim.

Arab va o'zbek tillaridagi sodda gaplarning qiyosiy tahlili ikki til sintaktik tizimining o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikkala tilda sodda gap bosh va ikkinchi darajali bo'laklar yordamida shakllanib, tugallangan fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Arab tilida sodda gaplarning ismiy va fe'lli gaplarga ajratilishi, i'rob tizimi hamda fe'lning gap boshida kelishi muhim sintaktik xususiyatlar hisoblanadi. O'zbek tilida esa sodda gaplarning yig'iq va yoyiq turlarga ajratilishi, kesimning odatda gap oxirida kelishi va grammatik munosabatlarning qo'shimchalar orqali ifodalanishi asosiy xususiyatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi. I jild (Nahv). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024.
2. Xolidov B. Arab tili grammatikasi. – Toshkent, 2007.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.